HOZIRGI XITOY TILIDA 把 “BĂ”NING KO‘MAKCHI VAZIFASIDA QO‘LLANILISHI

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-24-15-16

Artikova Ziyoda Zaynitdinovna
Filologiya fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Ziyda1978@gmail.com

THE USE OF 把 “BĂ” AS AN AUXILIARY WORD IN MODERN CHINESE

Artikova Ziyoda Zaynitdinovna
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tashkent State University of Oriental Studies
Ziyda1978@gmail.com

Abstract. *This study examines the grammatical function of 把 bă as an auxiliary element in Modern Chinese. It focuses on its grammaticalization, semantic development, distributional features, and structural patterns. Particular attention is given to the use of 把 bă in expressing approximate quantity with numerals and classifiers.*

Keywords: *把 bă, grammaticalization, approximate quantity, auxiliary word, classifier, distribution.*

Xitoy tilida 把 *bă* ko‘p ma’noli va ko‘p vazifali til birliklaridan biri hisoblanadi. Uning semantik-grammatik taraqqiyoti jarayonida mustaqil leksik ma’nosining zaiflashib, yordamchi so‘z vazifasiga o‘tishi kuzatiladi. Til taraqqiyotida mustaqil so‘zlarning yordamchi so‘zlarga o‘tishi tarixiy jarayon bo‘lib, 把 “bă”ning hisob so‘zidan ko‘makchi vazifasiga o‘tishi ham grammatikallashuv hodisasi bilan bog‘liq. Tarixiy manbalarda Min davridayoq 把 *bă* hisob so‘zlardan keyin kelib, taxminiy miqdorni ifodalagani, Sin davrida esa bunday qo‘llanish yanada faollashgani kuzatiladi.

Hozirgi xitoy tilida 把 *bă* ko‘makchisi asosan “chog‘li”, “chamasi”, “taxminan”, “qariyb” kabi taxminiy miqdor ma’nolarini anglatadi [1]. U mustaqil holda gap bo‘lagi vazifasini bajarmaydi, balki boshqa til birliklari bilan birikib, muayyan grammatik ma’noni shakllantiradi. Shu jihatdan uning distributsiyasi, ya’ni til birligining nutqda boshqa til birliklari qurshovida ishlatila olish o‘rinlari muhim ahamiyat kasb etadi [2].

把 *“bă”*ning sintaktik qatordagi o‘rni muayyan grammatik qoidalar bilan chegaralangan bo‘lib, u asosan “Hisob so‘zi + 把 + ot/sifat/payt oti” hamda “Son + 把 + hisob so‘zi/ot” modellarida qo‘llanadi. Birinchi modelda 把 *bă* hisob so‘zidan keyin kelib, keyingi birlikning miqdorini taxminiy tarzda belgilaydi. Masalan, 个把人 [gè bă rén] – “bir-ikkita odam” birikmasida 个 *gè* hisob so‘zi va 把 *bă* ko‘makchisi birgalikda 人 *rén* “odam” so‘zining aniq emas, taxminiy miqdorini ifodalaydi. Ikkinchi modelda esa 把 *bă* asosan 百 *bǎi* “yuz”, 千 *qiān* “ming”, 万 *wàn* “o‘n ming” kabi sonlar bilan birikib, shu son atrofidagi taxminiy miqdorni bildiradi [3].

把 *“bă”*ning birikuv imkoniyatlari chegaralanganligi uning muhim grammatik xususiyatlaridan biridir. U har qanday son yoki hisob so‘zi bilan erkin qo‘llanmaydi. 把 *bă*

mustaqil miqdor koʻrsatkichi emas, balki oʻzi birikib kelgan son yoki hisob soʻzi bilan birgalikda taxminiylik semantikasini yuzaga keltiradi. Demak, 把 *“bǎ”*ning koʻmakchi vazifasi uning tarixiy semantik-grammatik taraqqiyoti natijasida shakllangan boʻlib, hozirgi xitoy tilida taxminiy miqdorni ifodalovchi oʻziga xos grammatik vosita sifatida namoyon boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘. *O‘zbek tili grammatikasi. Morfologiya*. – Toshkent: Fan, 1975. – B. 549–551.
2. Hojiyev A. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati*. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 37.
3. 李柔冰. 现代汉语概数助词“把、来、多”的用法考察. – 上海: 上海师范大学, 2011. – 页. 47.